

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 05 | pp. 178-185 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI O'RGANISH HAMDA BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI



X. Mamatov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Audit kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda tashqi auditorlik tekshiruvlari paytida eng muhim bosqichlardan biri sanalgan ichki nazorat tizimini o'rganish hamda baholashning nazariy asoslari to'g'risida fikrlar yoritib berilgan. Shuningdek, ichki nazorat tizimini o'rganish va baholash jarayonlarining samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar tasnifi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Auditorlik tekshiruvi, ichki nazorat tizimi, buxgalteriya hisobi tizimi, moliyaviy hisobot, nazorat testlash, ichki nazorat savolnomasi.

Аннотация. В данной статье описаны теоретические основы изучения и оценки системы внутреннего контроля, которая считается одним из важнейших этапов при проведении внешнего аудита хозяйствующих субъектов. Также разработана классификация факторов, влияющих на эффективность процессов изучения и оценки системы внутреннего контроля.

Ключевые слова. Аудит, система внутреннего контроля, система бухгалтерского учета, финансовая отчетность, контрольное тестирование, вопросник внутреннего контроля.

Abstract. This article describes the theoretical basis of studying and evaluating the internal control system, which is considered one of the most important stages during external audits of economic entities. Also, a classification of factors affecting the effectiveness of the internal control system study and evaluation processes was developed.

Key words. Audit, internal control system, accounting system, financial reporting, control testing, internal control questionnaire.

Kirish. Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mustahkam zamin yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrda qabul qilingan PQ-3946-sonli qarorida ham ta'kidlanganidek: «O'tgan yillarda mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini

litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon yaratdi. Shu bilan birga, qator muammolar va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish uchun auditorlik xizmatlarining ahamiyatini oshirishga to'sqinlik qilmoqda» [1].

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishning asosiy quroli bu ichki auditdir. Buxgalteriya hisobi nazoratning muhim qismi sifatida va amaliy faoliyatining alohida sohasi sifatida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizimda alohida ahamiyat kasb etadi. Auditorlik faoliyati dalolat vazifasini bajarishda, ya'ni moliyaviy hisobotning haqiqiyligini baholashida, ularning to'g'riligini tekshirib chiqishda jiddiy muammolar yuz bermoqda. Har bir iqtisodiy subyektda tegishli mutaxassislar tomonidan barpo etiladigan buxgalteriya hisobi tizimi nisbatan arzon bo'lishi hamda moliya-xo'jalik operatsiyalari va iqtisodiy voqealar hisobda o'z vaqtida, to'g'ri aks etishi kafolatlanishi lozim. Bu tamoyillar va qoidalar buxgalteriya axboroti to'g'ri shakllanishiga baho berishga mezon bo'lgani uchun har qanday auditor ularni baholay olishlari darkor.

Adabiyotlar sharhi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruvchi chog'ida ichki nazorat tizimini o'rganish va baholash bo'yicha bir qator mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-677-son Qonunda « Auditorlar ishi sifatining ichki nazorati auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan, uning auditorlari va xodimlari tomonidan ushbu Qonun talablariga rioya etilishini ta'minlovchi tartib-taomillarga asoslangan tashkiliy chora-tadbirlar tizimidan iboratdir» deb ta'kidalgan [2].

Iqtisodchi olim N.F.Karimov ichki nazorat tizimi deganda "xodimlar tomonidan muayyan harakatlarning takomillashtirilishini nazorat qilishni ta'minlash..." tushunilishini, ichki nazorat tushunchasini keng ma'noda bir qator elementlardan tashkil topgan tizim sifatida talqin etadi [3].

Yetuk mahalliy olimlarimizdan biri K.B. Axmedjanovning fikricha, «ichki nazorat har bir boshqaruv jarayonida nazorat bosqichining ajralmas elementi bo'lib, uning boshqa bosqichlarda nechog'li sifatli kechayotganini ko'rsatuvchi va axborot ochiqligini ta'minlovchi - alohida tizim sifatida shakllangan. Ichki nazorat tizimi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning butun faoliyatiga, ya'ni, ishlab chiqarish jarayoni, uchastka va sexlar faoliyatiga, hamda xo'jalik faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonunchilik va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy me'yoriy-huquqiy bazasini tashkil etuvchi ichki hujjatlari, shuningdek, ishlab chiqarish texnologiyasini qamrab olgan bo'lib, uning samarali faoliyati moliyaviy hisobot natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi» [4].

R.P.Buliga «Ichki nazorat - bu xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati tomonidan sub'ektning iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish to'g'risida ma'lumot olish, shuningdek ishonchli moliyaviy hisobotlarni tuzish maqsadida amalga oshiriladigan jarayon», deb ta'riflagan [5].

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor Avlokulovning fikricha, ichki nazorat tizimini baholashning maqsadi auditorlik tekshiruvchi vaqti va hajmini to'g'ri belgilab olish

hisoblanadi. Aynan ichki nazorat tizimiga baho berish orqali mijoz korxonada faoliyatini tekshirish dasturi to'g'ri belgilanishi mumkin. Bundan tashqari ichki nazorat tizimiga baho berish yordamida auditorlik tashkiloti mijoz korxonada uni tartibga solish va takomillashtirish bo'yicha maslahat berishi mumkin [6].

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, iqtisodchi olim A Avlokulovning ichki nazorat tizimiga bergan ta'rifi bugungi kunda amaliy hamda nazariy jabhalarni qamrab olganligini ko'rishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar. Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashtirilishi natijasida yildan yilga salmoqli natijalar qo'lga kiritilib, barqaror iqtisodiy o'sish yo'nalishi mustahkamlanib bormoqda. Bunday ijobiy natijalarga erishilishida iqtisodiyotning barqaror va mutanosib sur'atlarda o'sishi hamda tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiyalashni ta'minlash, uning eng muhim tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, soliq siyosatini yanada erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlar uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini izchil kamaytirib borish, xorijiy investitsiyalarni, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish, xususiy tadbirkorlarga qaratilgan e'tiborlar natijasida tadbirkorlikning jadal rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati tomonidan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish va samarali yuritish, aktivlar va hisob hujjatlarining saqlanishini ta'minlash, xato va firibgarlik holatlarini oldini olish va aniqlash, buxgalteriya yozuvlarining aniq va to'liqligi va o'z vaqtida ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni tayyorlash oqibatida erishilmoqda. Tayyorlangan ma'lumotlarning ishonli va aniq bo'lishi uchun korxonada ichki nazorat tizimiga e'tibor qaratilishi lozim.

Auditor ichki nazorat tizimining ishonchliligini va tekshirish o'tkazishda unga tayanish mumkinligi haqida asosli qaror qabul qilish uchun bu tizimni o'rganadi. Nazorat tizimining ishonchliligi, uning hisob yuritishda muayyan shaxslar qasddan qilishi mumkin bo'lgan, shuningdek tasodifiy yo'l qo'yiladigan xatolarning oldini olish va aniqlash layoqatidan iborat. Agar auditorning fikricha, ichki nazorat tizimi ishonchli bo'lsa, bunda u tekshiruv obyektlaridan birortasi bo'yicha schyotlar yoki muomalalarni tekshirishni to'liq yoki qisman ichki nazorat tizimining ishlashini tekshirish natijasi bilan almashtirishi mumkin. Agar, ichki nazorat tizimi ishonchli va sezilarli darajada izdan chiqmasdan ishlayotganligini aniqlansa, u bunday tizimdagi buxgalteriya ma'lumotlarida ham katta xatolar yo'q deb taxmin qilishga haqlidir. Agar, ichki nazorat tizimi samarasiz bo'lsa, auditor uning kamchiliklaridan kelib chiqadigan xatarli vaziyatlarni bartaraf qilish uchun testlar soni va uni tanlash hajmini ko'paytirishi lozim. Ichki nazorat tizimini ko'rib chiqishda, auditor avvalo, tekshirilayotgan korxonada rahbariyatining ichki nazoratga munosabatini, ya'ni korxonada rahbarining fikrlash xususiyatlarini, ularning rahbarlik qilish uslubini, aniq moliyaviy hisobotga munosabatini o'rganadi. Auditor korxonada atrofida ishchanlik muhitini ham inkor qilmasligi lozim. O'rganishning ushbu bosqichida auditor mijoz bilan tuzilgan shartnomadan kelib chiqadigan tahlikali vaziyatlarni baholashda to'plagan ma'lumotlaridan foydalanadi. Lekin, u agar butun auditning tahlikali vaziyatlarini qulay deb baholagan bo'lsa, shuningdek, korxonaning ichki nazorat tizimini ham ishonchli deb bilmasligi lozim. Rejalashtirish paytida ichki nazorat tizimi faoliyatining barcha tomonlarini batafsil tahlil qilib chiqish lozim. Auditor olingan

ma'lumotlarni yagona tizimga keltirish uchun qisqacha hisobot tayyorlab, unda quyidagilarni bayon qiladi: korxonaning faoliyat qilish sohasi va printsiplari; rahbariyatning ishonchli hisob va nazorat tizimini yaratishga oid majburiyatlari; rahbariyatning korxonaga faoliyatini nazorat qila olish layoqati.

Faoliyat sohasini bayon qilishda auditor asosiy diqqat-e'tiborini ichki nazoratning alohida uchastkalariga qaratadi. Turli tarmoqlardagi ayrim muomalalar va schyotlarga nisbatan nazoratning kuchaytirilishi boshqalari uchun samarasiz bo'lishi mumkin. Masalan, savdoda tovar zahiralarini nazorat qilish, amalda etarli darajada samarali bo'lib, ayni paytda sanoatda materiallarni nazorat qilish kassani nazorat qilishdan samarasiz bo'lishi mumkin.

To'g'ri yo'lga qo'yilgan ichki nazorat tizimi xatolar vujudga kelishini bartaraf etib, natijada, noto'g'ri, befoyda qarorlar qabul qilish hamda zararlar vujudga kelishini imkon qadar kamaytiradi. Bu ko'zda tutilmagan xatolarga ham, ataylab qilinganlariga ham, to'lig'icha taalluqlidir. Buning ustiga ichki nazorat yaxshi yo'lga qo'yilganda tasodifiy xatolar oson aniqla-nadi, ataylab qasddan qilingan xatolar esa faqat puxta o'ylangan doimiy tekshiruv va mas'uliyatlarni taqsimlash tizimi yordamida bartaraf qilinishi mumkin.

Ichki nazorat tizimi - xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati tomonidan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish va samarali yuritish, aktivlar va hisob hujjatlarining saqlanishini ta'minlash, xato va firibgarlik holatlarini oldini olish va aniqlash, buxgalteriya yozuvlarining aniq va to'liqligi va o'z vaqtida ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida qabul qilingan tashkiliy tadbirlar, usullar va amallar (ichki nazorat vositalari) yig'indisi. Ichki nazorat tizimi axborotlarni to'plash tizimi bo'lib, mavjud xatolarni o'z vaqtida aniqlash, har qanday muomalalarni muvofiqlashtirish tizimi mavjudligi, inventarizatsiya muntazam ravishda o'tkazilishi, buxgalteriya hisobotlari va rejaning barcha jabhalarda bajarilishi tahlil qilinishi bilan tavsiflanadi. Ichki nazorat tizimining samarali ishlashi natijasida faoliyatda daromadlar oshirilishi imkoniyatlari izchil isloh qilish imkoniyati tug'iladi, daromadni yo'qotish xavf-xatari tugatiladi.

Ichki nazoratning tuzilishi turli xil bo'lishi, korxonaga faoliyati, uning hajmi, faoliyatning komp'yuterlashtirilganligi, rahbariyatning shaxsan nazorat qila olish imkoniyatlari va boshqa ko'plab omillar bilan tavsiflanadi.

Auditor ichki nazorat tizimini o'rganish va baholash jarayonini o'tkazish hamda hujjatlashtirishda quyidagi namunaviy shakllardan foydalanishi zarur:

- maxsus ishlab chiqilgan testlar;
- rahbar xodimlar va buxgalteriya xodimlarining fikrlarini aniqlash uchun namunaviy savollar ro'yxati;
- maxsus blankalar va tekshiruv varaqalari; bloksxemalar va grafiklar;
- kamchiliklar ro'yxati, bayonnomalar yoki dalolatnomalar.

O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunida ichki nazoratga taaluqli qandaydir maxsus talablar yo'q. Shuning uchun auditor ichki nazorat tizimini baholashda ikkita omilga tayanadi:

- ichki nazoratning maqsadi korxonaga rahbariyati uchun ham, auditor uchun ham bir xil - buxgalteriya hisobotining ishonchliligi va obyektivligini ta'minlash;

- auditorlik hisobotining tahliliy qismida ichki nazorat ho-latini ekspertiza qilish natijalarini aks ettirish zarur.

Ichki nazorat tizimini baholashning asosiy maqsadi auditni rejalashtirish, shuningdek auditorlik amallarining turlarini, o'tkazish vaqtini va hajmini aniqlash uchun puxta zamin yaratib, ularni auditorlik tekshiruvining dasturida aks ettirishdan iborat. Auditor tomonidan dastlabki auditorlik tekshiruvi dasturi tayyorlangan va u oldinda turgan ishlarning borishi to'g'risida ma'lum tasavvurga ega. Dastlabki dastur sifatida o'tgan yilgi auditorlik tekshiruvining dasturi olinib, mijoz-korxonadagi ichki nazorat tizimini dastlabki tahlil qilish va samarasizlik xavf-xatarini baholash natijalariga muvofiq tuzatishlar kiritiladi.

Auditorlik tekshiruvi dasturi moliyaviy hisobotdagi axborotlarning ishonchliligini tasdiqlashga qaratilgan amallar ro'yxatidan iborat. Har bir auditorlik amalining turi, o'tkazish vaqti va miqyosi aniqlanib, u moliyaviy hisobotning bir yoki bir necha ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liq. Auditorlik amallarining ettita asosiy turi mavjud: qayta sanash, kuzatish, tasdiqlash, og'zaki so'rov, hujjatlarni tekshirish, nusxa ko'chirish va tahlil qilish amallari. Auditorlik amallarini o'tkazish vaqti turlicha bo'lishi mumkin: balans tuzgunga qadar yoki tuzilganidan so'ng. Bajariladigan amallar miqyosi ishlar hajmiga bog'liq bo'lib, ushbu amallarni safarbar qilish chog'ida bajarilishi mumkin.

Ichki nazorat tizimini baholashning maqsadi - bu uni takomillashtirish bo'yicha konstruktiv takliflar ishlab chiqishdir. Auditor ichki nazorat tizimini ishlab chiqishda faol ishtirok etib, o'z takliflarini mijozga taqdim etiladigan maxsus xatda bayon qiladi. Auditorlar ushbu takliflarni auditorlik tekshiruvining elementi sifatida rasman qabul qilib, ularni konsultatsiya xizmatlari qatoriga kiritmaydi. Berilgan takliflarga rioya qilish yoki qilmaslikni mijozning o'zi hal etadi. Takliflar bayon qilingan xat audit jarayoni yakunlanganidan so'ng yoziladi.

Xatda ichki nazorat tizimining muammolari bilan bog'liq faktlar bayon qilinib, auditor bular haqida mijoz korxonaga rahbariyatini xabardor qilishi lozim. Muammolar ichki nazorat tizimining tarkibi va faoliyat ko'rsatishida sezilarli kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi va korxonaning moliyaviy axborotlarini ro'yxatga olish, qayta ishlash va moliyaviy hisobotda umumlashtirish layoqatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muammolar mas'ul shaxslar aniqlanmaganligi, ular orasida xizmat vazifalarining taqsimlanmaganligi, xo'jalik muomalalarining tekshirilmasligi va amalga oshirilishi bo'yicha zarur nazoratning o'rnatilmaganligi, nazorat amallarining samarasizligi, nazoratdan qochish maqsadida mansabdor shaxslar tomonidan nazorat amallarining ataylab buzilishi, korxonaga rahbariyati yoki xodimlarining ataylab qilgan xatolari, masalan, buxgalteriya yozuvlarini qalbakilashtirish yoki almashtirish kabi tavsiflanishi mumkin.

Mijoz korxonani xabardor qilish zarur bo'lgan faktlar bu ichki nazorat tizimining sezilarli kamchiliklaridir. Ular shu bilan tavsiflanadiki, ichki nazorat tizimi ayrim elementlarining tuzulmasi yoki faoliyat ko'rsatishi, tekshiriladigan moliyaviy hisobotlarda katta xatolar yoki axborotlarning buzib ko'rsatilishi yuzaga kelishi mumkin va bu xatolar korxonaga xodimlari tomonidan o'zlarining kundalik vazifalarini bajarish chog'ida aniqlash ehtimolini pasaytirmaydi. Auditor negativ faktlarni maxsus izlashi lozim emas, ammo

agar ularni aniqlasa, bu haqda rahbariyatga bildirishi lozim. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 7-moddasiga muvofiq buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot, shuningdek ichki nazorat tizimini tashkil etish uchun xo'jalik yurituvchi subyektning rahbari javobgardir.

Auditor mijoz uchun samarali ichki nazorat tizimini ishlab chiqishga javobgar emas. Bunday tizimni yaratish korxonaning tashkiliy tuzilmasini, nazorat amallarini va hujjatlashtirishni ishlab chiqishni taqozo etadi. Auditorlik firmasi ishlab chiqadigan nazorat tizimi bu konsultatsion xizmatlar bo'lib, ularni firma o'zining auditorlik funksiyalariga kiritmaydi.

Ichki nazorat tizimi uchta tarkibiy qismga bo'lib o'rganiladi, ya'ni auditor auditorlik tekshiruvlari jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektning ichki nazorat tizimi quyidagilarni o'z ichiga olishini inobatga olishi lozim:

- buxgalteriya hisobi tizimini;
- nazorat muhitini;
- alohida nazorat vositalarini.¹

Ushbu uchala tarkibiy qism o'zaro bog'liqlikda axborotlardagi jiddiy xatolarning oldini olish, aniqlash va tuzatishni ta'minlaydi.

Nazorat muhiti deganda xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatining ichki nazorat tizimini belgilash va ushlab turishga yo'naltirilgan amaliy harakatlari va xabardorligi tushuniladi.

Nazorat muhitining ahvoli rahbarlarning ish uslubi, ularning dunyoqarashi, nazorat va xodimlar ustidan nazorat maqsadini tushuntirish tizimining samaradorligiga bog'liq.

Nazorat muhiti elementlari siyosat va boshqaruv uslublari, korxonaning boshqaruv tuzulmasi, kuzatuv kengashi, boshqaruv funksiyalari va mas'uliyatlarni taqsimlash uslublari, nazorat boshqaruv uslublari, ichki audit faoliyati, kadrlar siyosati, tashqi ta'sirlar (soliq nazorati kabi koordinatsion nazorat).


Mijoz korxonada rahbariyatining nazoratga munosabati nazorat muhitiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruvning yuqori pog'onasi xizmatchilarning nazoratga munosabatini belgilaydi. Boshqaruv muhiti yuqori darajadagi ichki kommunikatsiya tizimini ta'minlaydigan, Kuzatuv Kengashi huzuridagi audit faoliyatining samarali ishlashiga yordam beradigan, byudjetlar tizimi ya'ni biznes-reja yoki smeta va ularning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlardan foydalanadigan, ichki auditning samaradorligini ta'minlaydigan boshqaruv tizimi bilan tavsiflanadi. Nazorat muhiti korxonada xodimlarining kompetentligi, xizmat vazifalarining taqsimlanishi, aktivlar, hujjatlarni olish imkoni va hisob yozuvlarini vaqti-vaqti bilan taqqoslab turish bilan aniqlanadi. Nazorat funksiyalarini amalga oshiruvchi xodimlar kompetentligi korxonada ichki nazorat tizimining asosiy belgisi hisoblanadi. Korxonaning kadrlar bilan bog'liq muammolari ichki nazorat tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar buxgalterlar tez-tez almashtirib turilsa, bu hisob va nazorat funksiyalari etarli tajribaga ega bo'lmagan va buning oqibatida ko'plab xatolarga yo'l qo'yadigan mutaxassislar tomonidan bajarilishiga olib keladi. Yangi rahbarlar va mansabdor shaxslar korxonadagi hisob tizimi bilan etarli darajada tanish

¹O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyatining 12-sonli milliy standarti 18-bandi

bo'lmisligi mumkin. Ayrim hollarda buxgalteriya xodimlari yuqori boshqaruv bo'g'ini tomonidan topshirilgan noqonuniy hisob amallarini bajarishni hohlamaganliklari uchun ham ishdan bo'shab ketadilar. Shuning uchun ham buxgalteriya xodimlarining tez-tez almashtirilib turishi salbiy holat deb baholanadi.

Ichki nazorat tizimi samarali bo'lishi uchun funktsional mas'uliyatlar yoki xizmat vazifalarining etarli darajada taqsimlanishi juda muhimdir. Nazorat amallari samaradorligi 1– chizmada bayon etilgan.

Vazifalar shunday taqsimlanishi kerakki, xizmatchilardan hech biri yuqorida sanab o'tilgan to'rtta funktsiyaning ikki yoki undan ortig'ini bajarmasligi lozim. Birinchi va to'rtinchi funktsiyalar boshqaruv, ikkinchi funktsiya hisob, uchinchi esa saqlash funktsiyasi hisoblanadi. Bu funktsiyalarni turli shaxslar va bo'linmalar o'rtasida taqsimlash afzalliklari, ishlarni muvofiqlashtirish (bitta xo'jalik muomalasining turli jihatlarini ko'rib chiqilishi hisobiga ataylab qilinmaydigan xatolarni aniqlash va to'g'rilash osonlashishi hamda axborotlarni buzib ko'rsatishda ikki yoki undan ortiq mutaxassislarning til birlashtirishini talab etadi. Ushbu mutaxassislarning ish samaradorligini qay darajada ekanligi ham aynan ushbu jarayonda yaqqol ko'rinadi hamda ichki nazorat tizimini samarali yoki aksincha ishlayotganligini aniqlash imkoni paydo bo'ladi. Korxonada hisob funktsiyalari va nazorat amallarini korxonada xodimlari va kompyuter tizimi bajarishi mumkin.



1- rasm. Nazorat amallari samaradorligini belgilovchi mezonlar²

Menejerlar tomonidan bu funktsiyalar bajarilishi ustidan nazorat o'rnatilishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Mijoz korxonalar tarkibiy bo'linmalar rahbarlari yoki nazoratchilari xizmatchilar tomonidan topilgan xatolarni tuzatishlari, hisob tizimiga taalluqli qarorlar qabul qilishi va ruxsat etishi mumkin. Nazorat o'rnatish boshqaruv nazoratining muhim vositasi va butun ichki nazorat tizimi faoliyat ko'rsatishining sharti hisoblanadi.

Xulosa. Auditor yil davomida ichki nazoratda ma'lum kamchiliklar bo'lganini aniqlasa muvofiqlikni aniqlash uchun oldin o'tkazilgan tekshirishlarning natijasi qandayligini aniqlash, oradan vaqt o'tgandan so'ng nazorat turlari o'zgardimi, agar o'zgargan bo'lsa, ushbu natija ana shu o'zgarish tufayli bo'lishi mumkin, qolgan davrning yana qancha davom etishi - hisobda aniqlangan nuqsonlar shunga o'xshash vaziyatlarda takrorlanishi mumkinligi, moliyaviy hisobot tayyorlanishida moliyaviy hisobot moddalar qay darajada nazorat qilinishi zarurligi – bunday aniqlangan nuqsonlarning muhimligi va ularning keyinchalik takrorlanishi mumkinligi, nazorat natijalaridan qat'iy nazar, qanday tekshirish o'tkazilishi – ularning bir qismi ichki nazoratning aniqlangan bo'sh joylarini to'ldirishi mumkinligi kabi tadbirlarni ishlab chiqadi.

Auditorlik tekshiruvida nazorat testlash amallarini qo'llash orqali yuqori auditorlik riski darajasini kamaytirishga hamda ishonchli auditorlik dalillarini to'plashga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrda qabul qilingan PQ-3946-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-677-son Qonun, 25.02.2021.
3. Каримов Н.Ф. (2007) Тижорат банкларида ички аудитни ташкил қилиш ва уни услубиётини такомиллаштириш муаммолари./Монография. –Т.
4. Ахмеджанов К.Б. (2016) Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари диссертацияси автореферати. – Т.
5. Р.П.Булыга Классификация и стандартизация финансового контроля и аудита в Российской Федерации / Р. П. Булыга // Учет. Анализ. Аудит. – 2017. – № 5. – С. 14.
6. Авлокулов А.З. (2012) Аудиторлик текширувида ички нazorat тизимини баҳолаш. //“Молия” илмий журнали. -Тошкент, №5-6. 64-67-б.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)



² Malumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.